

**Botirov Baxtiyor Fayzullayevich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixlogiya fakulteti dotsenti

## **PROFESSIONAL TA'LIMDA TALABALAR HURFIKRLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

*Xazratqulova Sanobar Saidmurod qizi*

*Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU magistranti.*

97 436 72 76

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada professional ta'linda talabalar hurfikrligini rivojlantirishga doir bilim, malaka, ko'nikmalarni aniqlash va bu sohadagi kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik hurfikrlik, kompetensiya, ta'lim, texnologiya, bilim, zamonaviy ta'lim, xalq og'zaki ijodi.

### **KIRISH**

Professional ta'linda talabalarning pedagogik hurfikrlilikka oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va bu sohadagi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Talabalarning pedagogik hurfikrlilikka oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanildi.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ushbu vazifalar O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlarida — «jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» sifatida belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Shu ma'noda bo'lajak O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 7-fevral, 6-son, 70-modda. o'qituvchilarning pedagogik hurfikrlilikka oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va bu sohadagi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan islohotlarning mazmun mohiyatini bo'lajak o'qituvchilarga singdirish orqali ularning pedagogik tafakkuri kengaytirib borildi. Bu masala yuzasidan bir qancha vaqt mobaynida quyidagicha izlanishlar olib borildi:

1. Talabalarning pedagogik hurfikrlilikka oid bilim darajasini aniqlash;
2. Talabalarning ta'lim-tarbiyaga oid milliy-ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlari doirasini aniqlash;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil 7-fevral, 6-son, 70-modda

3. Talabalar tomonidan pedagogik hurfikrlilikka oid bilimlarning o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlash;

4. Bu sohada erishilgan mavjud bilimlar va ularni targ‘ibot qilishga tayyorgarlik darajasini aniqlash va hokazo.

Birinchi yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandi, I kurs bilan IV kurs talabalari o‘rtasida 30% gacha farq sezildi, ya’ni I kurslarda 60 % va IV kurslarda 90 % ni tashkil etdi. Buning sababi pedagogika institutlarida «Umumiy pedagogika» fani II kurslarda va III kurslarda o‘qitiladi. Asosan, shu o‘quv predmetida ta’lim nazariysi, tarbiya nazariysi, pedagogika tarixi va pedagogik mahoratga oid bilimlar mazmunida pedagogik hurfikrlilikka oid ma’lumotlarni berishga harakat qilindi. Ikkinci bosqichda talabalarning pedagogik hurfikrlilikka oid bilim, ko‘nikma va malakalari bosqichma-bosqich shakllantirildi.

Bunda:

- a) pedagogik hurfikrlilikka oid tushunchalar;
- b) buyuk siymolarning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari, qarashlari, asarlari;
- v) xalq og‘zaki ijodidagi hurfikrliliklar;
- g) umuminsoniy va milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga xizmat qiladigan mavzular doirasida amalga oshirildi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogik hurfikrlilikka oid ma’lumotlar ma’ruza, seminar, mustaqil ta’lim va pedagogik amaliyot jarayonlarida talabalar ongiga singdirilib borildi. Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash masalasi har qanday jamiyatda ilg‘or g‘oyalı insonlarning ezgu orzusi bo‘lib kelgan. Aynan shu maqsadda Prezidentimiz tomonidan olg‘a surilgan «Beshta muhim tashabbus», «Harakatlar strategiyasi», «O‘qituvchi obro‘sini oshirish», «Inson manfaatlari yili», «Sog‘lom avlod yili», «Ijtimoiy himoya yili», «Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili», «Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustaxkamlash yili» kabi dasturlar va «Yangi O‘zbekiston - yangicha dunyoqarash» shiorining hayotga tatbiq etilishi va ularning mazmun-mohiyati hamda davlat rahbarining bu boradagi talablari talabalarga singdirilib borildi. Shu sababli bugungi kunda pedagogik hurfikrlilik tarbiyasi tom ma’noda yuqorida zikr etilgan davlat dasturlari asosida olib borilishi shart.

Professional ta’limda pedagogik hurfikrlilikni rivojlantirishning ma’rifiy bosqichlarini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq:

- komil inson tarbiyasi;
- komil inson tarbiyasini amalga oshirish maqsadi va vazifalari;
- komil inson tarbiyasini amalga oshirish tamoyillari;
- uzlusiz ta’lim tizimi;
- uzlusiz ma’naviy tarbiya tizimi;
- raqobotbardosh mutaxassis tayyorlashga erishish.

Davlatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqishning birdan bir yo‘li jahon talablariga javob bera oladigan raqobotbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. Jahon talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun ularning ongida keskin burilish yasash kerak. Negaki, talaba ongli ravishda maqsad sari intilmas ekan, yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etmas ekan, eskicha fikrlashning domidan chiqa olmaydi. Shuning uchun ham biz bugungi kunda buyuk bobolarimizdan nafaqat faxrlanish, balki ularning ma’naviy merosxo‘riga aylanish vazifasi bo‘lajak o‘qituvchilar ongiga singdirildi.

Bunday vazifaning qo‘yilishi talabalarda pedagogik hurfikrlilik nima ekanligini anglab olishlariga zamin yaratdi. «Ma’lum tarixiy davrda olam, tabiat va jamiyat hodisalari, unda

odamning o'rni va roli haqidagi muayyan jamiyatda yetakchi yoki hukmron bo'lgan dunyoqarash, u asosda shakllangan tasavvurlar, barqaror bo'lib qolgan (stereotip) qarashlar haqligiga shubha bilan qarash, ishonchszilik, tafakkur usulining an'anaviy tarzlari doirasidan chiqib, erkin fikr bildirish, haqiqatni izlash va topishda aqlga, ilm-fan dalillari, ijtimoiy tajribaga tayanib, yangi fikrlar, g'oyalar bildirish, nazariy qoidalar yaratish hurfikrlilikdir. Hurfikrlilik ayni chog'da ma'naviy madaniyatni takomillashtirish, ijtimoiy munosabatlarni izga solish harakati hamdir»- deyiladi, ilmiy adabiyotlarda.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfikrligini shakllantirish va rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining 5 ta muhim tashabbusi doirasida amalga oshirilgan ishlarning ham o'rni beqiyos. Bu borada bo'lajak o'qituvchilarni talabalar tomonidan tashkillashtirilgan hisobot konsertlariga olib borish, hamda ijro etilgan kuy, qo'shiq, ashula va raqs san'atida nimalar ifoda etilganligi, kuy, qo'shiqlar kimlar tomonidan bastalanganligini so'ng muhokama qilish, san'at va muhandislik grafikasi yo'nalihsida tashkillashtirilgan ko'rgazmaga olib borish, rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishish bilan bir qatorda uning hurfikrlilikka oid g'oyalarini asarlaridagi aksini tushunishdan iborat.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Bundan tashqari talabalar teatrda qo'yiladigan spektakllarga olib boriladi va undagi asosiy g'oyalarni guruhrilar kesimida muhokama qilish ham ta'lim oluvchilarning hurfikrlilik dunyoqarashini shakllantirish uchun asos bo'ladi. Jumladan, «Jannatga yo'l», «Vatan bolasи» (Talabalar teatri) kabi asarlarni ko'rish va ularning tahlili jarayonlarida talabalar bilan ochiq badiiy muloqotni yo'lga qo'yish natijasida ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar tahlil qilinadi. Talabalarni xalq amaliy san'ati bilan yaqindan tanishtirish masalasida yurtimiz hududidan mezolit, neolit davriga taaluqli sopol idishlar, 3 ming yillik oxiri 2 ming yillikka oid jez davri quyma 7 O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 1 tom. 800 bet badiiy buyumlari, ilk o'rta asr (V-VIII asrlar) amaliy bezak san'ati ganch o'ymakorligi (Samarqand, Varaxsha) va yog'och o'ymakorligi (Surxondaryo viloyati)da, VI-X asrlardan shisha idishlar ko'plab ishlanganligi o'sha davr ilg'or fikrlar natijasi hisoblanishi talabalarga tushuntirilib boriladi<sup>2</sup>.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfikrliligini rivojlantirishda ikkinchi tashabbus bo'yicha talabalar o'rtasida shaxmat-shashka, yugurish, arqon tortish, milliy sport turlariga jaib qilish, talaba qizlar o'rtasida volleybol, futbol musobaqalari o'tkazish maqsadga muvofiq. Uchinchi tashabbus bo'yicha talabalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari savodxonligi bo'yicha bilimlar kechasini tashkillashtirish, kompyuter texnologiyalari mutaxassislari bilan uchrashuvlarni o'tkazish, talabalarga dasturlashtirish metodikasi bo'yicha trening o'tkazishni tashkillashtirish, fakultetda internetdan foydalanish bo'yicha mahorat darslari o'tkazish, to'rtinchchi tashabbus bo'yicha talabalarning ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida kitobxonlik kechalari o'tkazish kabi ishlarni amalga oshirish ijobiy natijalar beradi. Unda amalga oshirilgan ishlar orqali talabalarni ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan innovatsion g'oyalarga o'rgatib boriladi, pedagogik hurfikrlilik madaniyati shakllantiriladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik hurfikrliligini rivojlantirishda beshinchi tashabbus bo'yicha talaba qizlarni ish bilan ta'minlash o'z xohish va istaklarini inobatga olgan holda tadbirkorlik ilmi bilan tikuvchi-bichuvchilikka, pazandalikka bo'lgan qiziqishini inobatga olgan holda shu yo'nalihsarning mohirlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilishi mumkin.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

<sup>2</sup> O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 1 tom. 800 bet

**Index:** *google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik hurfikrlilikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish ularning ongi va qalbiga qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllantirilgan hurfikrlilikni rivojlantirish masalasida tanlab olingan texnologiyadan foydalanishning mazmuni va metodlarini bosqichma-bosqich yoritish maqsad qilib olingan. Bunda ta’lim-tarbiya jarayonlarida an'anaviy bilim olish tizimi va an'anaviy fikrlash doirasidan noan'anaviy bilim olishga ishtyoq va noan'anaviy ilg‘or fikrlash ishtyoqining amalda samarali qo‘llanilishi natijasidagi rivojlanishi ekanligini ko‘rsatib o‘tdi. Bu esa bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi bilan asoslanailadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. T.: 2020 yil 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. 2016 yil 14 sentyabr.
3. To‘laganova G.K. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar. Monografiya.–T.: 2005.
4. Avloniy A. «Turkiy Guliston yohud axloq», O‘qituvchi nashriyoti. T.: 1993 yil.
5. Buyuk siymolar, allomalar (O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar), 1-kitob, T.:1995.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ...diss. – T.: 2007. – 305 b.